

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MILLIY ERTAKLARNING ROLI

Polvanova Fotimaxon Jamolidinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy ertaklarning tarbiyaviy va estetik ahamiyati yoritilgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida mujassam bo‘lgan axloqiy g‘oyalar orqali bolalarda halollik, rostgo ‘ylik, mehnatsevarlik, odob va vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada dars jarayonida ertaklardan foydalanishning samarali metodlari hamda ularning pedagogik vosita sifatida ta’siri muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy ertak, axloqiy tarbiya, qadriyatlар, boshlang‘ich ta’lim, xalq og‘zaki ijodi, o‘quvchi shaxsini shakllantirish

Zamonaviy ta’limda bolalarning nafaqat bilim, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta’limning boshlang‘ich bosqichi – bu bola shaxsining poydevori qo‘yiladigan davr bo‘lib, bu jarayonda axloqiy tarbiyaning o‘rnini beqiyosdir. O‘zbek xalq ertaklari esa ming yillar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan, ezgulikni targ‘ib qiluvchi, ibratli syujetlar asosida yaratilgan madaniy va tarbiyaviy merosdir. Shunday ertaklar orqali bolalarning axloqiy his-tuyg‘ularini shakllantirish, ularni jamiyatda o‘zini tutish madaniyatiga yo‘naltirish mumkin.

1. Milliy ertaklarning tarbiyaviy salohiyati.

O‘zbek xalq ertaklarida ko‘pincha halol inson g‘olib bo‘ladi, yovuzlik jazolanadi, mehnat qadr topadi, qahramon o‘zini emas, boshqalarni o‘laydi. Bu orqali bolalar hayotda qanday inson bo‘lish kerakligini, qanday fazilatlar qadrlanishini anglaydi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida rostgo ‘ylik, halollik, sabr-toqat asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi. “Boy ila gado”da esa insoniylik, kamtarlik, hasadgo‘ylik va ochko‘zlikning oqibatlari ko‘rsatiladi. Ertaklar obrazlar orqali bola ongiga ijobiy xulq-atvorni singdiradi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining qabul qilish darajasi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasviriy va hissiy obrazlarni tezda qabul qiladi, voqealarni intuitiv anglaydi. Shu bois ertaklar ularga o‘ta ta’sirchan pedagogik vosita hisoblanadi. O‘qituvchi ertakni faqat o‘qib bermasdan, uni jonlantirib, rollarga bo‘lib, mimika va intonatsiya bilan yetkazsa, bola bu orqali axloqiy g‘oyani sezilarli darajada ichki dunyosiga singdiradi. Bu yoshda bolaning o‘rnak olish xususiyati kuchli bo‘lgani uchun ertak qahramonlari o‘quvchi uchun real hayotdagi ideal obrazga aylanadi.

3. Ertaklar asosida tarbiyaviy dars tashkil etish yo‘llari.

Dars jarayonida ertaklardan samarali foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar muhim: ertakni o‘qishdan oldin savol-javob orqali mavzuga tayyorlash, o‘qilgandan so‘ng tahliliy suhbat o‘tkazish, “Agar sen Qimmat o‘rnida bo‘lsang, nima qilarding?” kabi

muammoli vaziyatlar yaratish, rolli sahma ko‘rinishlari orqali ertakni jonlantirish, bolalarning ertak asosida rasm chizishi yoki davom yozishini so‘rash orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish mumkin. Bu esa axloqiy qadriyatni faqat eshitish emas, balki o‘z hayotiy tajribasi orqali his qilishga yordam beradi.

4. Ertaklarning axloqiy g‘oyalarini zamonaviy hayotga bog‘lash.

O‘qituvchi ertakda ifodalangan axloqiy qadriyatlarni hozirgi kun hayotiga bog‘lab tushuntirishi kerak. Masalan, “Tog‘a bilan jiyan” ertagida vafodorlik va fidoyilik tarannum etiladi, bu g‘oya o‘quvchilarga oiladagi munosabat, do‘stlik va insoniylik haqida chuqurroq fikr yuritishga yordam beradi. Shuningdek, ertakdagi konfliktlarni tahlil qilib, bolalarni mustaqil xulosa chiqarishga undash orqali ular axloqiy tanlov qilishga tayyorlanadi.

XULOSA:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy ertaklar kuchli tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat bolalarning estetik didini, balki axloqiy tafakkurini, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Pedagog bu jarayonda ertaklarni to‘g‘ri tanlash, ularni tahlil qilishga yo‘naltirish va bolani faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etish orqali axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishi mumkin. Bu esa ma’naviy yetuk, axloqiy barkamol shaxs tarbiyasi uchun muhim zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR.

1. Абдуллаева H.P. Bolalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari. — Toshkent: Fan, 2021.
2. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Hasanboeva M.Q. Kichik mакtab yoshidagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Zиyo, 2019.
4. Сухомлинский V.A. Yurakdan yurakka ta’lim. — Toshkent: Ma’naviyat, 2018.